

Bankning 2015 yilda olgan foydasini taqsimlash

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining 2016 yil 10 iyundagi 42-sonli bayonnomasi bilan Bankning 2015 yilda olgan foydasini taqsimlash (yig‘ilish kun tartibidagi 4 masala) yuzasidan quyidagi qarorlar qabul qilindi:

1. 2015 yil yakuni bo‘yicha olingan foyda (auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarga muvofiq) quyidagicha taqsimlansin:
 - Imtiyozli kreditlash maxsus Jamg‘armasiga 1 630 128,8 ming so‘m;
 - Umumiy maqsadlarga mo‘ljallangan zahira fondiga – 9 780 772,5 ming so‘m;
 - 2015 yilning 9 oyiga uchun oddiy aksiyalar bo‘yicha hisoblangan oraliq dividendlarni to‘lab berishga – 1 212 640,0 ming so‘m;
2. 2015 yil uchun imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lab berishga 3 450 ming so‘m yo‘naltirilsin. Reestrga asosan, bankning taqsimlanmagan foydasining qolgan qismidan 40 227 000 dona oddiy aksiyalarga 24,5 foiz yoki har bir oddiy aksiyaga 245 so‘m dividend hisoblansin. Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlarni to‘lab berishga 9 855 615,0 ming so‘m yo‘naltirilsin. Sof foydaning qolgan 9 344 892,7 ming so‘m qismi, bankning taqsimlangan foyda hisobvarag‘ida taqsimlanmagan holda qoldirilsin.
3. Aksiyadorlarga 2015 yil uchun oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashning boshlanish sanasi – 2016 yil 13 iyun deb belgilansin, aksiyadorlarga 2015 yil uchun oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lashning tugash sanasi – 2016 yil 8 avgust deb belgilansin.